

KUCHLI INTEGRATSIYALASHUV SHAROITIDA MAMLAKATIMIZDA XALQARO VA STRATEGIK SAVDO SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Nurova Gulnora Nutfulloyevna

Buxoro davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kuchli integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida mamlakatimizda xalqaro va strategik savdo siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xususan, global iqtisodiy integratsiya, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Zamonaviy savdo mexanizmlarini joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash hamda xalqaro savdo tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro savdo, strategik savdo siyosati, iqtisodiy integratsiya, eksport salohiyati, tashqi savdo, raqobatbardoshlik, globalizatsiya, investitsiya muhiti, savdo liberallasuvi, iqtisodiy rivojlanish

Аннотация

В данной статье рассматриваются направления совершенствования международной и стратегической торговой политики страны в условиях углубляющейся интеграции. Особое внимание уделяется вопросам расширения внешнеэкономических связей, повышения экспортного потенциала и укрепления конкурентоспособности национальной экономики. Также обосновываются приоритетные направления внедрения современных торговых механизмов, улучшения инвестиционного климата и развития сотрудничества с международными торговыми организациями.

Ключевые слова: международная торговля, стратегическая торговая политика, экономическая интеграция, экспортный потенциал, внешняя торговля, конкурентоспособность, глобализация, инвестиционный климат, либерализация торговли, экономическое развитие

Abstract

This article analyzes the directions for improving international and strategic trade policy in the context of deepening economic integration. Particular attention is paid to expanding foreign trade relations, increasing export potential, and strengthening the competitiveness of the national economy. The study also substantiates key priorities such as the implementation of modern trade mechanisms, improvement of the investment climate, and the development of cooperation with international trade organizations.

Keywords: international trade, strategic trade policy, economic integration, export potential, foreign trade, competitiveness, globalization, investment climate, trade liberalization, economic development

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishi va uning jahon bozoriga kirib borishini taʼminlovchi asosiy omillardan biri mamlakatning xalqaro savdo salohiyati hisoblanadi. Shu sababli ham rivojlangan va rivojlanayotgan har bir mamlakat oʻz daromadini yuksaltirish va valyuta oqimini koʻpaytirish maqsadida xalqaro savdoni strategik jihatdan amalga oshirishga harakat qiladi. Oʻz navbatida bu maqsadga erishishda mamlakat barcha imkoniyatlardan foydalangan holda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda bozorga taklif qilishni koʻpaytirishga harakat qiladi. 2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish” bilan bogʻliq ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berilgan¹. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini taʼminlash respublikamiz sanoat korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish boʻyicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi. Ikkinchi jahon urushidan soʻng global iqtisodiy integratsiyaning kengayishi yuzaga kela boshladi. Xalqaro iqtisodiyotning chuqurlashuvi natijasida turli iqtisodiy tashkilotlarning yuzaga kelishi yuz berdi.

Ikkinchi jahon urushidan soʻng global iqtisodiy integratsiyaning kengayishi yuzaga kela boshladi. Xalqaro iqtisodiyotning chuqurlashuvi natijasida turli iqtisodiy tashkilotlarning yuzaga kelishi yuz berdi. Jumladan, Bretton-Vuds valyuta tizimining vujudga kelishi asnosida Xalqaro valyuta fondining tashkil topishi bunga misol boʻladi. Jahon savdo tashkiloti (JST) 1995-yilda tashkil etilgan boʻlsa-da, uning tarixi bevosita 1947-yilda tuzilgan “Savdo va tariflar boʻyicha umumiy kelishuv (General Agreement on Tariffs and Trade, GATT)”ning evolyusiyasi natijasida vujudga kelgan. Mazkur kelishuvning asosiy maqsadi xalqaro savdoda toʻsiqlarni bartaraf etish boʻlib, unga koʻra notarif toʻsiqlarni kamaytirish, import kvotalarini shakllantirish va savdoni subsidiyalash kabilarni oldini olishdan iborat boʻlgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kuchli iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida xalqaro va strategik savdo siyosatini takomillashtirish masalalari koʻplab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng oʻrganilgan. Xususan, Adam Smith va David Ricardo tomonidan ishlab chiqilgan klassik savdo nazariyalari xalqaro savdoning nazariy asoslarini tashkil etadi. Ricardo tomonidan ilgari surilgan nisbiy ustunlik nazariyasi mamlakatlar oʻrtasidagi savdo aloqalarini samarali tashkil etishda muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Zamonaviy savdo nazariyalari doirasida Paul Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi savdo nazariyasi alohida ahamiyatga ega boʻlib, unda miqyos samaradorligi va nomukammal raqobat sharoitida savdo oqimlari izohlanadi. Michael Porter tomonidan taklif etilgan raqobat ustunligi modeli milliy iqtisodiyotlarning global bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan World Trade Organization va World Bank hisobotlarida savdo liberallashtirish, tarif va notarif toʻsiqlarni qisqartirish hamda eksportni ragʻbatlantirish siyosatining iqtisodiy oʻsishga ijobiy taʼsiri asoslab berilgan. Shu bilan birga, International Monetary Fund tadqiqotlarida tashqi savdo siyosatini

makroiqtisodiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. MDH va O'zbekiston iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy savdo siyosatini diversifikatsiya qilish, eksport tarkibini modernizatsiya qilish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv masalalari ustuvor yo'nalish sifatida ko'rib chiqilgan. Zamonaviy sharoitda raqamli iqtisodiyot va logistika infratuzilmasining rivojlanishi ham savdo siyosatini takomillashtirishning muhim omillaridan biri sifatida baholanmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda xalqaro va strategik savdo siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida umum-ilmiy va maxsus iqtisodiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil usuli orqali xalqaro savdo nazariyalari, xususan Comparative advantage va New trade theory asoslari o'rganildi. Statistik tahlil usuli yordamida mamlakatning tashqi savdo ko'rsatkichlari, eksport-import hajmi va tarkibi baholandi. Taqqoslash (komparativ) usuli orqali turli mamlakatlar tajribasi o'rganilib, ularning savdo siyosatidagi ustuvor yo'nalishlari aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida savdo siyosati elementlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Ekonometrik tahlil usullari orqali savdo siyosati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. SWOT-tahlil yordamida mamlakat savdo siyosatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, strategik xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

JST 1986-1994 yillarda Urugvay raundida qabul qilingan qoidalar va GATT bo'yicha me'yorlarga amal qilgan holda savdolari tashkil etishni kuzatib keladi. Shu boisdan, mamlakatlar o'rtasidagi umumiy savdo kelishuvi va proteksionizm bo'yicha yagona yondashuvga erishilmagan va bu bo'yicha Doha raundida (Qatar) muzokaralar davom etmoqda. Ta'kidlash kerak, rivojlanayotgan mamlakatlarga savdo imtiyozlarini qo'llash rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ko'proq amal qiladi. GATTning amal qilishi va JSTning tashkil topishi natijasida bojxona tariflari va notarif to'siqlarning bir necha barobar pasayganligini qayd etish lozim. Bu esa, mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni tartibga solish va tomonlarning manfaatlarini himoya qilishga va rivojlantirishga qaratilgan jarayonlarni o'zida aks ettiradi.

Keng jamoatchilik va ba'zi ekspertlar tomonidan O'zbekistonni Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lib kirishi ortidan JSTga a'zo bo'la olmasligi yoxud jarayon qiyinlashishi mumkinligi haqida asossiz fikrlar berilmoqda. Bu borada, o'zbek-amerika biznes forumida ham to'xtalib o'tildi. Ya'ni, O'zbekistonni YeOIIga a'zo bo'lishi JSTga qo'shilish jarayonini murakkablashtirishi va ma'lum bir darajada Rossiya tomonidan mamlakatimizga siyosiy bosimlar paydo bo'lishi mumkinligi haqida asossiz ravishda fikrlar bildirildi. Ta'kidlash lozimki, JST va YeOII turli iqtisodiy tashkilotlar bo'lsa-da, ular o'z faoliyatlari natijasida bir-birlarini to'ldirib turishlarini unutmashimiz kerak.

Birinchiidan, O'zbekiston YeOIIga a'zo bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, bunday qarash noto'g'ri. Chunki, Hukumatimiz aholi farovonligi va tinchlik-

xotirjamligini ta'minlashga xizmat qiladigan mavjud barcha xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatishga harakat qilmoqda. Yangi O'zbekistonni yangicha qarashlar, ochiqlik va shu kabi muhim demokratik tamoyillar asosida qayta kashf etilayotganligi - uni jahon hamjamiyatiga integratsiyasini kuchaytirish yo'lidagi zaruriy qadamlardan biri sifatida e'tirof etish o'rinlidir. Bu jarayonlarni so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlardan va iqtisodiyotni bozor qonunlari asosida rivojlantirishga harakat qilinayotganligidan ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, YeOIIning iqtisodiy tashkilot ekanligini ta'kidlash joizdir. Bu jihat tashkilotga a'zo davlatlar suverenitetiga ta'sir etmasligi, davlatlarning biri tomonidan boshqasiga iqtisodiy tazyiq o'tkazilishi mumkin emasligi ravshan deb qarash lozim. Bu tashkilotning asosiy maqsadi o'zaro manfaatdorlikdan iborat, shubhasiz, bu tashkilotga a'zo bo'lish masalasini muhokama qilish o'rinlidir.

Agar bu tashkilotga siyosiy tus berishga urinishlar bo'lsa, nega YeOII davlatlari bilan AQSh o'rtasida ikki yoqlama strategik hamkorlik tuzilgan. Fikrimizcha, YeOIIga a'zolik masalasini tahlil qilishimiz bilan birga, parallel ravishda, bu tahlillarimizni O'zbekistonning JSTga a'ziligiga qo'yilayotgan muhim qadam sifatida baholashimiz mumkin. Chunki, milliy tovar-mahsulotlarimizni YeOII hududi bo'ylab erkin sota olishimiz imkoni paydo bo'lishi va yurtimizga a'zo mamlakatlar mahsulotlarining erkin kirib kelishi raqobatbardoshligimizni oshirishga xizmat qiladi.

Shuni ham qayd etish kerakki, YeOII hududida mahsulotlarga (markirovka, sifat, sanitariya normalari va boshqalar) nisbatan bo'lgan alohida me'yorlar tizimi ishlab chiqilgan. Shu kabi talablar turli mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida turli sifat o'zgarishlarini kiritishni talab etadi. Mazkur holat monopol deb hisoblanadigan ayrim tarmoqlarning faoliyatini xavf ostida qoldirishi mumkin. Ehtimol, bizda ham menejment va ishlab chiqarish jarayonlarini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish davri yetib kelgandir. Ushbu jarayonlar, o'z-o'zidan O'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishiga ham xizmat qilishiga asos bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev mamlakat tashqi siyosatidagi ayrim jihatlarga to'xtalib, jumladan quyidagilarni ta'kidladi: " izlanishdamiz, mana, biz katta-katta integratsiyalarga qo'shilmogchimiz. Hamma har xil aytayapti: mustaqillikni berib qo'yamiz. Hech kim hech qachon mustaqillikni, o'zbek millati, kim bo'lishidan qat'iy nazar endi bermaydi. Bobolarimiz boshlab bergan kurash hozir ham davom etadi. Lekin jilov o'zimizning qo'limizda. Biz bozor iqtisodiyotida manfaat nuqtai nazaridan qaysi yo'l to'g'riligini hisob-kitob qilishimiz kerak. Har kuni. Albatta, bizning eng katta harakatimiz - eng ma'qul, eng to'g'ri iqtisodiy manfaat yo'liga kiramiz. Kim bilan borishimizni xalqimizning o'zi deputatlar bilan maslahat qilib... Deputat degani - u xalqimizning ovozi, xalqimizning ko'zi, xalqimizning dardi. Xalqimiz bilan maslahatlashib qilamiz. Yo'limizning to'g'riligiga ishonsak, qilamiz"². Demak, O'zbekiston JST, YeOII kabi iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lsa, bu jarayon hayotimizga katta o'zgarishlar olib kelishi, shubhasiz. Biz uchun asosiysi, ushbu o'zgarishlarda millatimiz manfaatini himoya qilib, xalqimiz farovonligi va tinchlik-xotirjamligini ta'minlashimiz muhimdir. Shu bilan birga, O'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishi to'g'risida xalqaro ekspertlar ham o'z munosabatini bildirib o'tganlar.

Amerikalik konsultant, AQSh Savdo vakolatxonasi (USTR) va Qo‘shma Shtatlarning Jahon Savdo Tashkilotidagi missiyasida uzoq yillar mas’ul lavozimlarda ishlagan Mark Linskott JSTga a’zo bo‘lish O‘zbekiston uchun nega kerakligiga uchta sababni aytdi.

Birinchiidan, jahonda JSTga kirmagan davlatlar juda kam qolgan (164 ta davlat a’zo - tahr.). Markaziy Osiyodan faqat Turkmaniston va O‘zbekiston hozircha tashkilot a’zosi emas. JSTga qo‘shilishga qiziqish bildirmayotgan KXDRni hisobga olmaganda, hatto urushlardan keyin tiklanayotgan mamlakatlar - Sudan, Janubiy Sudan, Iroq kabilar ham tashkilotga kirish tomon harakat qilmoqda.

Ikkinchiidan, O‘zbekiston xorijdan investitsiya jalb etishga, o‘z mintaqasidan tashqari hududlarda ham savdo aloqalarini o‘stirishga katta e’tibor qaratmoqda. JSTga a’zolik O‘zbekistonga kirayotgan investorlar va mamlakatning savdo hamkorlariga kafolatlar va oshkoralikni taqdim etadi.

Uchinchiidan, JSTga a’zo bo‘lish O‘zbekistonga boshqa davlatlarning o‘ziga aloqador tijoriy qarorlari ustidan (masalan, chegara va bojlar masalasida) shikoyat qilish imkonini beradi. Misol uchun, Antigua va Barbuda JST orqali AQShning savdo cheklovlariga qarshi chiqqandi. Yoki Markaziy Amerika mamlakatlari Yevropa davlatlari tomonidan banan importiga joriy etilgan cheklovlarning bekor qilinishiga erishishgan edi.

Qolaversa, O‘zbekiston JSTga qo‘shilib, uning to‘laqonli a’zosi sifatida xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish imkoniga ega bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, Jahon Savdo Tashkilotiga asos solingan 1995-yildan buyon hali birorta davlat undan chiqib ketmagan. YeOII a’zo bo‘lgandan so‘ng, O‘zbekistonni Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zo bo‘lishi savol ostida qolmaydi. Sababi, 1994-yil 21 dekabrda JSTga a’zo bo‘lish yuzasidan ishchi guruh tuzilgan, lekin 2005-yilga kelib ushbu muzokaralar to‘xtab qolgan edi. Shunday bo‘lsa-da, 2019-yil boshiga kelib, ushbu ishchi guruhning ishi jonlantirildi va O‘zbekiston JSTga a’zo mamlakatlar bilan “Tashqi savdo rejimi” kelishuvini imzolashi nazarda tutilgan. Shu kunga qadar mamlakatimiz qator JSTga a’zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakuniga yetkazmoqda. Shu o‘rinda tashqi iqtisodiy siyosat respublikaning jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlashga, uning to‘lov balansini yanada yaxshilashga, qulay investitsion muhitni yaratishga yo‘naltirilishi kerak. Bizning uchun respublikamizda zarur bo‘lgan shart-sharoitlar mavjud.

O‘zbekistonning tashqi savdosida, shuningdek, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor sanaladi:

- Respublikaning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, o‘ziga xos strategik savdo siyosatini shakllantirish.
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ochiqlik siyosatini amalga oshirishdan avval hududiy savdo-iqtisodiy bloklarga a’zo bo‘lish orqali raqobat muhitiga moslashish va o‘z mavqeyini egallashga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Eksport tarkibini xom-ashyo resurslari va qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan ilmfan talab qiladigan tarmoqlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarga o‘zgartirish.

- Nafaqat ichki bozorda balki jahon bozorida ham xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash.

Global Integratsiya va Erkin Savdo Bitimlari, xalqaro savdo siyosatini takomillashtirishda erkin savdo bitimlari va global integratsiya muhim o'rin tutadi. Erkin savdo bitimlari davlatlarga o'zaro bozorlarni ochish, savdo to'siqlarini kamaytirish va raqobatni oshirish imkoniyatini beradi. Yangi Bitimlar va Integratsiya bu esa erkin savdo hududlari va bitimlari tuzish orqali to'siqlarni kamaytirish va investitsiya oqimlarini rivojlantirish mumkin. Xalqaro hamkorlik asosida esa Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali xalqaro savdoni tartibga solish.

Raqobatbardoshlikni Oshirish strategik savdo siyosatining eng muhim jihatlaridan biridir. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, texnologiya-iy innovatsiyalarni joriy etish va yangi bozorlar yaratish orqali mahsulotlarning eksport imkoniyatlari kengayadi.

Raqobatni kuchaytirish uchun asosiy chora-tadbirlar:

- innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish.
- mahsulot sifatini yaxshilash va bozor ehtiyojlariga moslashtirish.
- mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va global bozorga eksport qilish.

Xalqaro savdo siyosatining samarali amalga oshirilishiga yordam beradigan yo'nalishlardan yana biri, Mahalliy Ishlab Chiqarishni Rivojlantirishdir. Bunda mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi xalqaro savdo siyosatining samarali amalga oshirilishiga yordam beradi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning global bozorlar uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishlari, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Buning asosiy yo'nalishlari quyidagilar. Mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va eksportga yo'naltirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bu orqali yangi ish o'rinlari yaratish, logistika tizimini takomillashtirish va mahsulotlarni xalqaro bozorga yetkazib berishning samarali usullarini ishlab chiqish. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish yo'nalishi bo'yicha tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish mamlakatning savdo siyosatini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda bojxona, soliq va valyuta siyosatlarini optimallashtirish va savdo jarayonlarini soddalashtirish kerak. Bularning boshqarish mexanizmlari bo'lib bular, soliq va bojxona siyosatini soddalashtirish va modernizatsiya qilish. Eksport va import jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish. Bojxona va soliq tartibotining xalqaro standartlarga mos bo'lishini ta'minlash. Soliq va bojxona siyosatini soddalashtirish va modernizatsiya qilish. Eksport va import jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish. Bojxona va soliq tartibotining xalqaro standartlarga mos bo'lishini ta'minlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro va strategik savdo siyosatini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va global bozorga muvaffaqiyatli kirishning asosiy vositasidir. Savdo siyosatini takomillashtirish orqali davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi

iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish imkoniyatlari yaratildi. Integratsiyalashuv va global savdo tizimiga moslashish orqali davlatlarning iqtisodiy oʻsishi, investitsiya jalb qilish va bozorni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonni JST va YeOII kabi xalqaro iqtisodiy tuzilmalarga integratsiyalashuvi va aʼzo boʻlib kirishi mamlakatimizning tashqi savdodagi oʻrnini mustahkamlashga, har tomonlama manfaatga yoʻnaltirilgan hamkorlikni amalga oshirishga toʻliq imkon berishi bilan ajralib turadi.

Xalqaro va strategik savdo siyosatini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini taʼminlash va global bozorga muvaffaqiyatli kirishning asosiy vositasidir. Savdo siyosatini takomillashtirish orqali davlatlar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish imkoniyatlari yaratildi. Integratsiyalashuv va global savdo tizimiga moslashish orqali davlatlarning iqtisodiy oʻsishi, investitsiya jalb qilish va bozorni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abdulloyev, A. (2023). Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 42(42).

2. Abdulloyev, A. (2023). Агрокластер фаолиятини бошқаришнинг “базавий” модели ва унинг хусусиятлари. центр научных публикаций (buxdu. uz), 42(42).

3. Junaydulloyevich, A. A., & Rasulovna, K. N. (2021). Price Formation in Marketing: A Tool for Price Formation and Change. Academicia Globe, 2(6), 142-146.

4. Таирова, М. М., & Дустова, А. К. (2020). Роль гостиничных сетей в индустрии туризма. In Прорывные научные исследования: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 57- 59).

5. Gafurova, S. K. (2023). Quality Management In Education: A Systematic Approach. Educational Research In Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 126-129. ortance of Strategy. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).

6. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

7. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.

8. Qayimova, Z. (2023). Ways to Develop Economic Infrastructure in Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

9. Kadirovna, S. N. (2024). Importance of Foreign Experience for Uzbekistan in the Transition to a Green Economy. European journal of business startups and open society, 4(4), 48-51.

10. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

11. Niyozova, I. (2023). The Reforms Implemented In The Higher Education System Of The Republic Of Uzbekistan And Their Achievement Of Financial Independence. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 38(38).

12. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. *International scientific review*, (2 (12)), 105-107.

13. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. *Наука и образование сегодня*, (2 (49)), 35-36.

14. Хаирова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития цементной индустрии в Узбекистане. *Бюллетень науки и практики*, 7(6), 358-362.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**